TEMIR TANQISLIGI ANEMIYASI MAVJUD HOMILADOR AYOLLARDA ICHAK MIKROBIOTASI HOLATINI BAHOLASHNING AKUSHERLIK AMALIYOTIDAGI AHAMIYATI

Umarova M.B.
Ilmiy rahbar: **Do'stova N.Q.**
Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot institute, Buxoro, O'zbekiston
DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.23434258

Dolzarbligi: Homiladorlik davrida temir tanqisligi anemiyasi (TTA) eng ko'p uchraydigan ekstragenital patologiyalardan biri bo'lib, ona va homila organizmida gipoksiya, fetoplasentar yetishmovchilik hamda rivojlanish nuqsonlari xavfini oshiradi. So'nggi yillardagi ilmiy tadqiqotlar ichak mikrobiotasining buzilishi (disbioz) va fermentativ yetishmovchilik temir moddasining ichakda so'rilishini susaytirishi hamda TTA ning an'anaviy davolash usullariga chidamliligiga olib kelishini ko'rsatmoqda. Shu bois, TTA mavjud homiladorlarda ichak mikrobiotasi va hazm qilish tizimi holatini kompleks baholash dolzarb akusherlik vazifalaridan biridir.

Tadqiqot maqsadi: Temir tanqisligi anemiyasi tashxisi qo'yilgan homilador ayollarda koprogramma, mikrobiota va laborator ko'rsatkichlarni chuqur tahlil qilish hamda ularning klinik-akusherlik ahamiyatini baholash.

Material va usullar: Tadqiqotga TTA aniqlangan jami 60 nafar homilador ayol jalb etildi. Barcha bemorlarda umumiy qon tahlili (gemoglobin miqdori, leykotsitlar, ESR), temir almashinuvi ko'rsatkichlari (serum ferritini), tizimli yallig'lanish markeri (C-reaktiv oqsil — CRP), shuningdek, koprogramma (ahlatning umumiy va mikroskopik tahlili) tekshiruvlari o'tkazildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili:

Anemiya va temir zaxirasi ko'rsatkichlari: Tekshirilgan 60 nafar homilador ayollarning 100% ida turli darajadagi temir tanqisligi aniqlanib, gemoglobin miqdori 93-101 g/l oralig'ida yengil va o'rtacha darajadagi anemiyani tashkil etdi. Shuningdek, serum ferritinining ko'rsatkichi 6,3 ng/ml gacha keskin pasaygani organizmda temir zaxirasi deyarli tugaganidan dalolat berdi.

Hazm qilish va koprospik o'zgarishlar (Foizli tahlil): Bemorlarning 68% ida koprogrammada hazm bo'lmaydigan o'simlik kletchatkalari (++/+++) va kraxmal zarrachalarining miqdori me'yordan sezilarli darajada oshgani aniqlandi. Bemorlarning 45% ga yaqinida hazm bo'lgan va bo'lmagan muskul tolalari hamda neytral yog'larning uchrashi oshqozonosti bezi va ichak fermentativ faoliyatida funksional buzilishlar borligini ko'rsatdi.

Mikrobiota buzilishi va parazitar invaziyalar: Tekshirilganlarning 30% dan ortig'ida ichak mikrobiotasi disbiozi belgilari sifatida leykotsitlar miqdori 6-8 tagacha oshgani (++/+++ shilliq bilan birgalikda) qayd etildi. Shuningdek, bemorlarning umumiy guruhida 15% hollarda parazitar va zamburug'li infeksiyalar (jumladan, Lamblia kistalari va Enterobioz belgilari) aniqlandi.

Yallig'lanish va immunologik o'zgarishlar: Bemorlarning qon tahlillarida C-reaktiv oqsil (CRP) miqdorining 24 mg/l gacha (++) yuqori ko'rsatkich qayd etishi, temir tanqisligi fonida organizmda yashirin yallig'lanish jarayonlari kechayotganini tasdiqladi.

Xulosa:

Temir tanqisligi anemiyasi mavjud homiladorlarda ichak mikrobiotasining buzilishi va fermentativ

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

yetishmovchilik (kletchatka va kraxmal hazm bo‘lmasligi) temir preparatlerinin ichakda to‘laqonli so‘rilishiga to‘sqinlik qiladi va anemiya davosining samaradorligini pasaytiradi.

Akusherlik amaliyotida TTA ni davolash jarayonini yanada optimallashtirish uchun standart temir terapiyasiga qo‘shimcha ravishda koprospik tekshiruvlarni joriy etish, ichak mikrobiotasi va biokimyoviy yallig‘lanish ko‘rsatkichlarini (CRP, ferritin) birgalikda baholash yuqori amaliy ahamiyat kasb etadi.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.